

“KELINLAR QO‘ZG‘OLONI” TURK TILIDA

“O‘zbekiston xalq yozuvchisi, O‘zbekiston Qahramoni Said Ahmad... Bu nomni o‘zbek kitobxoniga tanishtirishga, ta’rifu – tavsiflashga ehtiyoj sezmaymiz. Chunki bugungi kunda birorta o‘zbek xonadoni yo‘qki, Said Ahmad kitoblari kirib bormagan bo‘lsa. Oqsoqol adibimizning o‘tkir mushohadagi boy romanlari, teran qissalari, ajoyib sahna asarlari-yu, ichakuzdi hangomalari mana necha o‘nlab yillardan buyon xalqimiz dilidan joy olgan” – deb yozgan edi O.Sharofiddinov [1,1]. Darhaqiqat, S.Ahmad asarlari bugungi kunda nafaqat o‘zbek xalqining ma’naviy mulkiga aylangan, balki dunyoning bir qancha mamlakatlari tillariga tarjima qilinib, xorijiy kitobxonlarning ham sevimli asarlariga aylanmoqda.

Ushbu maqolada S.Ahmadning ajoyib sahna asari – “Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasi [2] va uning turk tilining bilimdoni Iristoy Qo‘chqortoyev va turk tarjimoni, o‘zbek adabiyoti namunalaridan anchasini turk tiliga o‘giran Aynur O‘z tomonidan turk tiliga tarjima qilingan matni [3] xususida so‘z boradi.

S.Ahmadning o‘zi ushbu asarning turk tiliga tarjimasi haqida shunday degan edi: “Bir necha tilga tarjima qilingan “Kelinlar qo‘zg‘oloni” nomli asarimning turk tiliga o‘girilib nashr etilishini sabrsizlik bilan kutayapman”–deb yozgan edi [3,1]

S.Ahmad asarlarining qahramonlari oddiy odamlar. Ularning hatti-harakatlari, gap-so‘zlari, orzu-umidlari tabiiy, hayotda biron narsaga erishsa quvonishadi, xato qilishsa, to‘siqlarga duch kelishsa, qayg‘urishadi, iztirob chekishadi. Ularning quvonch onlari, dardu iztiroblari adib tomonidan g‘oyat ishonchli qalamga olingan. Turkcha tarjimada ham ijodkorlar asarning badiiy qimmatini to‘la saqlashga intilganlar.

Farmonbibining kelinlaridan biri Lutfi shunday deydi: “*Shundoq deysizu, o‘zimdanda qiyos. Kelganimda tipratikonga o‘xshab hurpayib, duch kelganiga ignamni sanchardim*” [2,209]. Turkcha tarjimasi: “*Öyle diyorsun ama benimle kıyaslayın. İlk gelin olduğumda, kirpi gibi önümde gelene çataardım*” [3,12]. Parchada ajratib ko‘rsatilgan o‘xshatishli sodda gap muallifning badiiy mahorati, iste’dodini ko‘rsatuvchi alomatdir. Ma’no ko‘chishining ushbu usuli qo‘llanilgan gap oddiy xalq vakili (Lutfi) tilidan aytilgan. Unda muallif qo‘llagan *tipratikonga o‘xshab hurpayib, duch kelganiga igna sanchmoq*” o‘xshatishi turk

tilida “*kirpi gibi önümde gelene çatmak*” shaklida berilgan. Garchi gap mazmuni tarjimada o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, unda o‘zbekcha jumla qisqartirilgani, “*duch kelganiga igna sanchmoq*” qismi tushirilgani, muallif chertib-chertib tanlagan o‘xshatishi turkcha tarjimada aks etmaganligini ko‘ramiz.

“Kelinlar qo‘zg‘oloni” komediyasidan olingan quyidagi parchaga e‘tibor beraylik: “*Usta Boqi allaqanday qo‘shiqni xirgoyi qilib tuflı ya-mayapti. Farmonbibi choynak-piyola ko‘tarib kiradi. U sal xomushroq*” [2,225]. Tarjimasi: “*Baki Usta mırıldanarak ayakkabı tamir eder. Fermanbibi, elinde çaynek ve piyale ile girer*” [3,42]. Bu tarjimada ham ayrim kamchiliklarga duch kelamiz: birinchidan, “*mırıldanarak*” so‘zidan oldin ‘*şarkıyı*’ so‘zini qo‘shish kerak edi; ikkinchidan, “*çaynek*” so‘zi turk kitobxoniga tanish emas, chunki bu so‘z turkchada “*çaydanlık*” deyiladi va u tarjimasiz qoldirilib, izohlanadigan xos so‘z hisoblanmaydi. Bundan tashqari, asliyatdagi “*U sal xomushroq*” gapı turkchaga o‘girilmagan.

Tarjimada har doim madaniy komponent, ya‘ni bir xalqqa xos bo‘lgan madaniy unsur mavjud bo‘ladi. Bulardan biri xalq maqollaridir. Tarjimon ijod jarayonida ana shu madaniy bo‘yoqdor so‘zlarga doimiy ravishda e‘tibor berisi kerak. Masalan, Famonbibining kelinlaridan biri (Bashorat) shunday deydi: “*Zo‘rdan zo‘r chiqsa, zo‘r bo‘ynini qisar*”. Ushbu gap turkchaga qilingan tarjimada quyidagicha beriladi: “*Deli deliyi görünce değneğini saklar*” (aynan tarjimasi: Jinni jinnini ko‘rishi bilan tayog‘ini yashiradi). Bir qarashda tarjimonlar o‘zbekcha maqolning aynan muqobilini topa olishgan. Chunki har ikkala maqolda ham “bir kishi (zo‘r (o‘zbekcha) – jinni (turkcha)ning o‘zidan kuchliroq boshqasini ko‘rganda sal cho‘chib turishi (bo‘ynini qisadi (o‘zbekcha) – tayog‘ini yashiradi (turkcha)” aytiladi. Bu yerda shuni ta‘kidlash joizki, turkchada ekvivalendi bo‘lmagan bunga o‘xshash maqollarni tarjima qilishda so‘zma-so‘z tarjima usulini qo‘llash mumkin, buning uchun turk tilining maqollar xazinasini “kovlashtirib” o‘tirish shart emas.

O‘zbekcha maqol va iboralar orasida ko‘pincha mushtaraklik kuza-tilsa-da, ba‘zi farqli jihatlar namoyon bo‘lishi tabiiy. Maqollar millat-ning o‘ziga xos xarakteri, dunyoqarashi asosida shakllangani bois asar qaysi tildan tarjima qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha xalqning milliy o‘zgacha-liklaridan tashqari, maqollarning kelib chiqish manbai haqida ham ma‘lumotga ega bo‘lish kerak. Tarjima jarayonida faqat so‘zlar emas, balki ikki madaniyat tutashadi. Bir madaniyatga xos, lekin ikkinchi madaniyat uchun noodatiy, yot so‘zlar yangi matnda moslashtiriladi.

Asosiysi, tarjimon soʻzma-soʻz emas, balki madaniyat belgilaridan kelib chiqib, kitobxonning dunyoqarashini hisobga olgan holda tarjimani amalga oshirishi lozim. Zero, tarjimon ijod qilish jarayonida nafaqat tilni bilishi, balki uning urf-odatlari, turmush tarzi, oʻy-kechinmalari haqida ham tasavvurga ega boʻlishi lozim. Chunki tarjimon oldida oʻquvchiga asl matnda ilgari surilgan gʻoya, madaniyatni kitobxonga yetkazishdek maʼsuliyatli vazifa turadi. “Kelinlar qoʻzgʻoloni” tarjimonlari ana shu vazifani ado etishgan. Bunga asar tarjimasini oʻqigach, amin boʻlish mumkin.

Yana bir misol: *Men umuman er-xotinning ishiga aralashmayman* [2,224]. Farmonbibining bu soʻzlari asar mazmunini belgilovchi nuqtalardan biridir. Tarjimonlar buni Buni yaxshi anglab gapni turk tiliga quyidagicha oʻgʻirganlar: *Ben genellikle gelinlerim ile oğullarım arasına girmem...*” [3,42]. Tarjimada gap mazmuni toʻla aks etgan. Qolaversa, tarjimonlar sof oʻzbekcha birikmalarni sof turkcha birikmalar orqali bera olishgan. Agar turkcha tarjima teskari oʻgirilsa, quyidagi gap yuzaga keladi: *Men odatda oʻgʻillarim bilan kelinlarimning orasiga tushmayman*. Soʻzlarga eʼtibor berilsa, tarjimada butkul boshqa soʻzlar (er-xotin - gelinler ile oğullar (kelinlar va oʻgʻillar) qoʻllanilgan, biroq muddao ayni, tarjima asliyatga toʻla muqobil vaziyatda turibdi.

“Kelinlar qoʻzgʻoloni” asarida muallif nutqi alohida ahamiyatga ega. Unda milliylik, aniqrogʻi oʻzbek maishiy hayotiga xos xususiyatlarga urgʻu beriladi: *Birin-keyin kelinlar chiqib hovlini yigʻishtira boshladilar. Biri dordan kirlarni oladi, biri chorpoyaga joy qiladi, biri hovlini supura boshlaydi. Ichkaridan Farmonbibining ovozi* [2,209]. Parchada keng, yetti oʻzbek oilasi tinch-totuv yashayotgan hovli tasvirlanadi, Farmonbuvining kelinlari barchasi oʻz yumushi bilan band. Tarjimonlar ushbu pachani turkchaga quyidagicha agʻdaradilar: *Arka arkaya gelinler gelip avluyu düzeltmeye başlarlar. Biri, ipten çamaşırları alır, biri çarpayaya yer yapar. İçeriden Fermanbibî'nin sesi gelir* [2,12]. Jumlar ravon, oʻz oʻrnida turkchalashtirilgan. Faqat “*chorpoyaga joy qiladi*” sodda gapi bilan bogʻliq baʼzi fikrlarimiz bor. Masalan, tarjimonlar “*chorpoya*” soʻzini tarjima qilmasdan qoldirib, toʻgʻri ish tutganlar, chunki bu faqat oʻzbek tiliga xos soʻz (realiya). Biroq, havolada bu soʻzning izohini berish kerak edi. Negaki, turk kitobxoni bu soʻzning maʼnosini chaqib olishga qiynalishi tabiiy. Qiyoslaydigan boʻlsak, “*chorpoya*” soʻzining muqobili rus tilida ham yoʻq. Shuning uchun rus tilida ushbu soʻz oʻzbekcha xos soʻz sifatida qabul qilinib, unga quyidagicha izoh beriladi: *chorpoya* – деревянная кровать, нары,

топчан (с низенькими перильцами - для сидения и лежания, ставится на открытом воздухе). Rus tilida *chorpoʻya* soʻziga koʻproq mos tushadigani *топчан* soʻzi boʻlib, Ruscha-turkcha lugʻatda ushbu soʻz *топчан* - **kerevet** deb berilgan [4,914]. Bunday misollardan juda koʻp keltirish mumkin.

Xulosa. “Kelinlar qoʻzgʻoloni”da aks etgan oʻzbek xalqiga xos chuqur milliylik, urf-odat va anʼanalarning boshqa tillarda qanday berilganini kuzatish tadqiqotchilar uchun yirik materialni tashkil etadi. Kelajakda mazkur asarning dunyoning boshqa tillariga qilingan tarjimalari ustida tadqiqotlar olib borilishi, asarning badiiy xususiyatlarining tarjimada qay darajada berilganligining oʻrganilishi maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, asarning turkchaga qilingan tarjimasi oʻzbek adabiyotini turk kitobxonlariga tanishtirish yoʻlida qoʻyilgan ilk qadamlardan biri boʻlib, bu asar va uning tarjimasi ustida olib boriladigan ishlar tarjima nazariyasi va tanqidi sohasida olib boriladigan tadqiqotlarga hissa boʻlib qoʻshilishi shubhasiz ekanligini taʼkidlash joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] – Саид Аҳмад, Танланган асарлар, 3 жилдлик, 1-жилд, Ҳикоялар, О. Шарофиддинов, Халқ севган адиб, сўзбоши, “Шарқ” концерни Бош таҳририяти, Тошкент, 2000, www.ziyouz.com, кутубхонаси, 1-б.

[2] – Саид Аҳмад, Танланган асарлар, 3 жилдлик, 2-жилд, Ҳажвиялар, пьесалар, “Шарқ” нашриёт–матбаа концерни Бош таҳририяти. –Тошкент, 2000.

[3] – Said Ahmed, Kelinler kozgalanı (Gelinlerin İsyanı), aktaranlar: İristay Kuçkartay, Aynur Öz. –Ankara, 1997.

[4] – Büyük Rusça-Türkçe Sözlük. –M.: «Russkiy yazık», Multilingual. –İstanbul, 1995.
